

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K:37.01.31:37.091.33

OLIV TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI AMALIYOTGA JORIY ETISH**ВНЕДРЕНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ****IMPLEMENTATION OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING CONCEPTUAL THINKING IN STUDENTS WITHIN HIGHER EDUCATION****G'ofurova Barnoxon Asadjon qizi** 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish masalalari tahlil qilingan. Konseptual fikrlash ta'limning zamonaviy talablariga javob beruvchi asosiy ko'nikmalardan biri bo'lib, u talabalarda ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur anglash, turli tushunchalar orasidagi mantiqiy bog'liqliklarni ko'ra olish hamda yangi bilimlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Maqolada konseptual fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida talabalarining ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirish, shuningdek, ularni mustaqil ta'lim jarayoniga tayyorlashga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье рассмотрены вопросы внедрения методики развития концептуального мышления у студентов в процессе высшего образования. Концептуальное мышление является одной из ключевых компетенций, отвечающих современным требованиям образования, так как оно обеспечивает глубокое понимание теоретических знаний, выявление логических связей между понятиями и систематизацию новой информации. В статье освещены педагогические технологии, методические подходы и механизмы их внедрения в практику для формирования концептуального мышления. Результаты исследования способствуют развитию у студентов творческого и критического мышления, а также подготовке к самостоятельному образовательному процессу.

Abstract

This article analyzes the issues of implementing the methodology for developing conceptual thinking among students in the higher education process. Conceptual thinking is one of the essential skills that meets modern educational requirements. It enables students to deeply understand theoretical knowledge, identify logical connections between concepts, and systematize new information. The paper highlights pedagogical technologies, methodological approaches, and mechanisms for applying them in practice to foster conceptual thinking. The findings contribute to strengthening students' creative and critical thinking abilities as well as preparing them for independent learning within the higher education system.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, konseptual fikrlash, metodika, pedagogik texnologiyalar, amaliyot, talaba.**Ключевые слова:** высшее образование, концептуальное мышление, методика, педагогические технологии, практика, студент.**Key words:** higher education, conceptual thinking, methodology, pedagogical technologies, practice, student.**KIRISH**

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimidan talabalar nafaqat mavjud bilimlarni egallashi, balki ularni konseptual darajada anglay olishlari ham talab etilmoqda. Konseptual fikrlash - bu tushunchalarni chuqur tahlil qilish, ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlash, ularni tizimlashtirish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Shu sababli, talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Konseptual fikrlash nafaqat nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirish, balki talabalarining mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion yondashuvlarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarni hal etishda yangicha fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Hozirgi davrda dunyoning yetakchi

PEDAGOGIKA

mamlakatlari Finlyandiya, AQSH, Koreya, Fransiya va Rossiya ta'lim tizimida konseptual fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodikalar va pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Bu esa, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun ham katta amaliy ahamiyatga ega.

Konseptual fikrlash – bu talabani o'zida mavjud bilimlarni qayta ishlash, turli ilmiy tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikni anglash, umumlashtirish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatidir. Bunday fikrlash jarayoni talabani intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, ijodkorlik va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi. Shuningdek, konseptual fikrlash shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, mustaqil qarorlar qabul qilishda va muammolarni samarali hal etishda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Konseptual fikrlash masalasi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ko'plab pedagog va psixolog olimlarning qarashlarida bu jarayonning nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan. Xususan, turli davr olimlari konseptual fikrlashning shakllanishi, rivojlanishi hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyatini o'z tadqiqotlarida asoslab berganlar. Quyida ayrim ilmiy qarashlarga e'tibor qaratamiz:

J. Bruner konseptual fikrlashni rivojlantirishda talabani faol o'quv subyekti sifatida ishtirok etishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, "ta'lim jarayonida asosiy vazifa — talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni tushunchalarni kashf etish, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirishga yo'naltirishdir".

D. Ausubel tushunchalararo mantiqiy bog'lanishlar asosida ta'lim tashkil etilishi zarurligini qayd etadi. U "o'quv jarayonida yangi bilimlar mavjud bilimlar tizimiga integratsiya qilinmasa, konseptual darajadagi tushunish yuzaga kelmaydi" deya ta'kidlaydi.

Lev Vygotskiy konseptual tafakkur rivojlanishini shaxsning ijtimoiy tajribasi va ta'limiy faoliyati bilan bevosita bog'liq holda izohlaydi. Uning nazariyasida "talabani bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ko'rishi va amaliy faoliyatga tatbiq etishi yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini shakllantiradi".

J. Piaget talabalarda konseptual fikrlash asta-sekinlik bilan shakllanishini ta'kidlab, "ilmiy tushunchalar shaxsning aqliy rivojlanish bosqichlariga muvofiq ravishda egallanadi, shuning uchun ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich yondashuv muhim ahamiyatga ega" deya qayd etadi.

M. Xolmurodov oliy ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash konseptual tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va muammoli ta'lim talabalarning konseptual tafakkurini rivojlantirishda bevosita ta'sirchan mexanizm bo'lib xizmat qiladi".

Yuqoridagi olimlar fikrlaridan ko'rinib turibdiki, konseptual fikrlashni rivojlantirish ta'limning mazmunini boyitadi, talabalarning mustaqil o'qish, tanqidiy va ijodiy yondashuvlarini shakllantiradi hamda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur nazariy qarashlar oliy ta'lim amaliyotida konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uni samarali tatbiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasi ketma-ket bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich nazariy tayyorgarlik, bunda talabalar konseptual tushunchalar bilan tanishtiriladi, ular ilmiy asosda sharhlanadi hamda asosiy kategoriyalar chuqur tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqich amaliy mashg'ulotlar, unda talabalar tushunchalararo bog'lanishlarni aniqlash, konseptual xaritalar, jadval va diagrammalar yaratish, shuningdek, bilimlarni real vaziyatlarda qo'llashga o'rgatiladi. Uchinchi bosqich ijodiy yondashuv, bu jarayonda talabalarda yangicha g'oyalar ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarga innovatsion yechim topish ko'nikmalari shakllanadi. To'rtinchi bosqich esa refleksiya, bunda talabalar o'z fikrlash jarayonini tahlil qilib, natijalarni baholaydi va keyingi rivojlanish uchun xulosalar chiqaradi.

Mazkur bosqichlar izchil amalga oshirilganda, talabalarda konseptual tafakkur tizimli ravishda shakllanadi. Natijada ular bilimlarni faqat yodlab olish bilan cheklanmay, balki tahlil qilish, taqqoslash va amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni rivojlantirishda bir qator zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan: interfaol metodlar (munozara, debat, "aqliy hujum") talabalarning tafakkur jarayonini jonlantiradi; muammoli ta'lim mustaqil qaror qabul qilishni

rivojlantiradi; loyiha asosida o'qitish ilmiy-ijodiy topshiriqlar orqali konseptual fikrlashni chuqurlashtiradi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchalararo bog'lanishlarni aniq ko'rsatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi; reflektiv yondashuv esa talabalarga o'z faoliyatini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o'z ustida ishlash imkonini beradi.

Metodikani amaliyotga joriy etish mexanizmlariga ta'lim dasturlariga konseptual fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni kiritish, professor-o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy loyihalar orqali konseptual tafakkurni kuchaytirish hamda zamonaviy ta'lim resurs va texnologiyalaridan keng foydalanish kiradi.

Shu tariqa, konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini oliy ta'lim jarayoniga joriy etish talabalarning nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirishiga, amaliyotda qo'llashga, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishga zamin yaratadi. Bu jarayon natijasida talabalar mustaqil fikr yurituvchi, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga qodir va muammolarni samarali hal etuvchi mutaxassislar sifatida shakllanadilar. Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini tatbiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim vazifa bo'lib, talabalarning intellektual salohiyatini oshirish va ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bruner J. *The Culture of Education*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996. – 224 b.
2. Ausubel D. *Educational Psychology: A Cognitive View*. New York: Holt, Rinehart & Winston, 2000. – 672 b.
3. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 b.
4. Piaget J. *The Equilibration of Cognitive Structures: The Central Problem of Intellectual Development*. Chicago: University of Chicago Press, 1985. – 176 b.
5. Ходжиев А. *Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 312 b.